



Received: October 29, 2023
Accepted: December 20, 2023
Available online: December 25, 2023

Halim Saidov

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiyalar universiteti
Toshkent, O'zbekiston

O'ZBEKISTON GAZETALARIDA MUAMMOLAR TAHLILINING BA'ZI MASALALARI (2023-yilda chop etilgan nashrlar misolida)

ANNOTATSIYA

Maqolada O'zbekistonda chop etilayotgan markaziy gazetalaridagi tahliliy-tanqidiy maqolalar, ocherklar, reportaj va suhbatlar mavzulari dolzarbligi nuqtayi nazardan atroflicha o'rganildi.

Jumladan, O'zbekiston istiqloлга erishgach, demokratik tamoyillarga asoslangan davlat qurish jarayonida jurnalistlar qanday yo'ldan borishlari xalqaro tajribalar asosida ko'rsatib berilgan. Shu o'rinda XX asrning ikkinchi yarmida AQSHdagi ikki katta universitet olimlaridan iborat Komissiya "Ozod va mas'uliyatli matbuot. Ommaviy kommunikatsiya bo'yicha umumiy ma'ruza: gazetalar, radio, kino, jurnallar va kitoblar" mavzusida tadqiqot o'tkazgani, mualliflar matbuot nazariyasini avtoritar, libertarian, ijtimoiy mas'uliyat va sovet totalitarga bo'lib o'rganishgani, ularning har birida maqsad hamda vazifalari, qoidalari mavjudligi, ular orasidan demokratiyaga xizmat qilgan nazariyalar uch yuz yil davomida hayotda qo'llash uchun Yevropa davlatlari va AQSH nafaqat siyosiy, ilmiy, balki muayyan iqtisodiy bosqichlarni ham bosib o'tgani tahlil qilingan. Ularning Turkiston (O'zbekiston) da tatbiqi, rivoji va tanazzuli, uning asoratlari tezda yo'qolmasligi 32 yillik tajriba ko'rsatib turganligini aytiladi.

Shunday bo'lsa-da, bugungi gazetalar va ularda faoliyat ko'rsatayotgan jurnalistlar ijodidagi konkret misollar asosida tahlil qilingan. "Ishonch" gazetasida chop etilgan Qudratilla Rafiqovning "Shaxsning tarixdagi roli yoxud Shavkat Mirziyoyev fenomeni va uning O'zbekiston hamda Markaziy Osiyoda kechayotgan jarayonlarga ta'siri haqida", "Xalq

Halim Saidov

Professor, Doctor of Sciences in Philology (DSc)
Journalism and Mass Communications
University of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: halimsayid@mail.ru

SOME ISSUES IN PROBLEM ANALYSIS WITHIN UZBEK NEWSPAPERS: A CONTENT ANALYSIS OF SOURCES FROM 2023

ABSTRACT

The article examines the relevance of analytical and critical writing, including essays, reports, and conversations, in central newspapers published in Uzbekistan.

Upon Uzbekistan's attainment of independence, journalists were shown the path to build a state based on democratic principles, drawing from international experiences. At the same time, in the second half of the 20th century, a commission of scholars from two major universities in the United States published "A Free and Responsible Press. In a general report on mass communications: newspapers, radio, movies, magazines, and books", the authors investigated the theories of the press as authoritarian, libertarian, social responsibility, and Soviet totalitarian; each of them has goals, tasks, and rules, among which European countries and the United States adopted not only political, scientific, but also certain economic stages to apply democracy in life for three hundred years. It is reported that the application, development, and degradation in Turkestan (Uzbekistan), as well as the fact that complications associated with them do not disappear quickly, indicate 32 years of experience.

The following analysis is based on specific instances from today's newspapers and their corresponding journalists. The articles under review are as follows: "About the role of a person in history or the phenomenon of Shavkat Mirziyoyev and its influence on the processes taking place in Uzbekistan and Central Asia", written by Qudratilla Rafikov and published in

soʻzi” gazetasida akademik Bakriddin Zaripov “Maʼnaviyat chirogʻi insonning ongu tafakkurini yoritadi, qalbi vijdonini uygʻotadi”, Naim Karimov “Istiqlol kurashchilari”, “Jamiyat” gazetasida Ulugʻbek Hamdamning “Oʻzimiz oʻtirgan shoxni kesmaylik” kabi ijtimoiy-siyosiy mavzularga bagʻishlangan.

“Yangi Oʻzbekiston” gazetasida Jabbor Razzoqovning “Jurnalistika — ochilmagan qoʻriq”, Husan Ermatovning “Bosma nashrlar transformatsiyasi nimalarga bogʻliq boʻlib qolmoqda?” va Ibrohim Gʻafurovning “Ertamizni matbuotsiz tasavvur qilib boʻlmaydi” maqolalari matbuot muammolarini yoritgan.

Publisistikaning asosiy janri hisoblangan yoʻl ocherki janrining bugungi talqini Norqobil Jalilning “Hind sori yuzlandik...”, Islom Hamroning “Qardoshlikning manguлик rishtalari”, Husan Ermatovning “Shushada yangi tashkilotga asos solindi”, Norqobil Jalilning “Endi mehmon emasmiz...”, Abdirasul Jumaqulning “Tojikiston taassurotlari”, shuningdek, Muhammadjon Obidovning “Kusto orolida 10 kun” sarlavhali sayohatnomalari misolida berilgan.

Tahlilning katta qismi gazetalarda chop etilgan muammoli maqolalarga bagʻishlangani va gazetalar imkonini boricha yashash uchun kurashyapti, jamiyatdagi barcha muammolarni imkonini qadar yoritayotgani, nashrlar tahririyatlari taniqli publisistlardan ham foydalanayotgani, bu ishlarni kuchaytirish uchun hukumatning va albatta, jamoatchilikning eʼtibori zarurligi taʼkidlangan.

Xulosada 2023-yil publisistikasida iqtisodiy mavzuga kam eʼtibor qaratilganligi sezilgani, demak, bu sohada ixtisoslashuv ishlarini olib borish uchun ijodiy maktablar yaratish, ularga iqtisodiy bilimi yuqori boʻlgan mutaxassislarni jalb etish, alaloqibat monopolchi va uning natijasida kelib chiqadigan korrupsionerlarni fosh etadigan jurnalistlarni tayyorlash navbatdagi vazifa ekanligi taʼkidlangan.

Kalit soʻzlar: Matbuot, nazariya, avtoritar, libertarian, ijtimoiy masʼuliyat, sovet totalitar, demokratiya, gazeta, publisistika, maqola, ocherk, reportaj, suhbat, muammo.

“Trust” (“Ishonch”) newspaper, “The lamp of spirituality illuminates the thinking of the human mind and awakens the conscience of the soul” by Naim Karimov in “Society” (“Jamiyat”) newspaper, “Independence fighters” by Bakriddin Zaripov in “People’s Word” (“Xalq soʻzi”) newspaper, and “Let’s not cut the branch we are sitting on” by Ulugbek Hamdam. All the articles are devoted to social and political topics.

In the newspaper “New Uzbekistan” (“Yangi Oʻzbekiston”), several articles were published that covered the problems faced by the press. Jabbor Razzokov’s “Journalism is an Undiscovered Treasure”, Husan Ermatov’s “The Transformation of Print: What Remains Dependent?” and Ibrahim Gafurov’s “We Cannot Imagine Our Future Without the Press” are some of the articles that were published. The main genre of journalism, the travel sketch, was also discussed in today’s interpretations. Examples of these include Norqobil Jalil’s “Let’s Face the Indian...” and “We Are Not Guests Anymore...”, Islam Hamro’s “Eternal Bonds of Brotherhood”, and Husan Ermatov’s “A New Organization Was Founded in Shusha”. Additionally, Abdirasul Jumakul’s “Impressions of Tajikistan” and Muhammadjon Obidov’s “10 Days on Cousteau Island” were mentioned as examples of travel stories.

It has been highlighted that a significant amount of analysis is directed towards articles in newspapers that report on societal problems. Newspapers strive to remain relevant by covering a broad range of issues, and they often enlist well-known publicists in their efforts. It is important to note that both the government and the community should actively support and encourage this type of reporting.

According to the conclusion, economic themes are receiving little attention in journalism as of 2023. As a result, one of the challenges is to establish specialized schools in this field, attract professionals with extensive knowledge of economics, and train journalists to uncover monopolies and associated corruption.

Key words: press theory, authoritarianism, libertarianism, social responsibility, Soviet totalitarianism, democracy, newspaper, journalism, article, essay, reportage, interview, problem.

KIRISH

O'zbekiston istiqbolga erishgach, bozor qoidalariga asoslangan demokratik yo'lni tanladi. Kapitalizm qoidalari ishga tushdi. Tadbirkorlikka yo'l ochildi, fermerlar, klasterlar tashkil etildi. Korxonayu tadbirkorlar, mulkdorlar va hatto, monopolistlar paydo bo'ldi. Ular bozorning beshafqat qonunlari asosida faoliyat olib bormoqdalar.

Biroq o'zbek matbuoti qaysi yo'lda? Demokratik g'oyalarga asoslangan, lekin o'z yurtlari manfaatini unutmagan jurnalistlarning tayanch nuqtasi nima? Bu yo'lga kirgan o'zbek jurnalistining tayanch nuqtasi qanday bo'lishi kerak?

XX asrning ikkinchi yarmida AQSHdagi ikki katta universitet olimlaridan iborat Komissiya juda katta mablag' evaziga "Ozod va mas'uliyatli matbuot. Ommaviy kommunikatsiya bo'yicha umumiy ma'ruza: gazetalar, radio, kino, jurnallar va kitoblar" nomli tadqiqot o'tkazadi. Uning natijalari "Matbuotning to'rt nazariyasi" ("For Theory of the Press") [Siebert et al., 1984] kitobida batafsil berilgan va jurnalistika bilan bog'liq barcha qoidalar bugun ham o'sha nazariya asosida belgilanadi. Tadqiqot mualliflari matbuot nazariyasini *avtoritar*, *libertarian*, *ijtimoiy mas'uliyat* va *sovet totalitarga* bo'ladilar. Ular har birining maqsad va vazifalari, qoidalari mavjud. Masalan, avtoritar nazariyada mavjud siyosiy mashina va amaldorlarni tanqid qilish taqiqlangan. Libertarian nazariyada axborot berish, ko'ngil yozish, pul topish, lekin, asosan, haqiqatni topishga va hukumatni nazorat qilishga yordamlashish uning bosh maqsadidir. Ijtimoiy mas'uliyat nazariyasida esa OAV ijtimoiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi kerak, aks holda, ularni kimdir shunday bo'lishga majbur etishi lozim. Sovet totalitar nazariyasida esa OAV davlatga qarashli bo'lib, uning qattiq nazoratida bo'ladi va uning quroli sifatida boshqa nazariyalardan farqlanadi.

Mazkur tadqiqotda G'arb olimlari o'z yurtlari bosib o'tgan nazariyalarni ketma-ketlikda ("avtoritar-libertarian-ijtimoiy mas'uliyat") izohlab, "yo'ldan adashgan" (sovet totalitar) nazariyani alohida ko'rsatadilar. Ularning fikricha, matbuot avtoritar nazariyasida shakllanib, evolyutsion yo'l bilan libertarian, undan so'ng ijtimoiy mas'uliyat nazariyasiga o'tdi. Bu nazariyalarni uch yuz yil davomida hayotda qo'llash uchun Yevropa davlatlari va AQSH nafaqat siyosiy, ilmiy, balki muayyan iqtisodiy bosqichlarni ham bosib o'tdi.

Turkistonda dastlab matbuotning avtoritar nazariyasi tatbiq etilgan bo'lsa, 1917-yilning fevral inqilobidan to Turkiston Muxtoriyati qonga botirilgungacha bo'lgan fursatda (1918-yil fevral) milliy matbuotimiz libertarian nazariya qoidalari bilan yashadi. Hokimiyat bolsheviklar qo'liga o'tgach esa O'zbekistonda sovet kommunistik (totalitar) matbuot nazariyasi yetmish to'rt yil hukm surdi. Unga asoslangan OAV odamlarning axborot olish huquqini poymol qildi, mustaqil fikrlashini chegaraladi, har bir fuqaro, jumladan, jurnalistlar shuuriga qo'rquv hissini joyladi. Rahbarlarni ham shu asosda "tarbiyaladi". Bu kasallik uch-to'rt avlodni zaharladi. Uning asoratlari esa tezda yo'qolmasligini 32 yillik tajriba ko'rsatib turibdi.

TADQIQOT METODLARI

Mazkur tadqiqotni tizimli olib borishda jurnalistikaning asosiy tadqiqot usullaridan bo'lgan tarixiy-qiyosiy va tasnifiy metodlardan foydalanildi.

Jumladan, qiyoslash – bilishning keng tarqalgan usuli, "barcha narsalar

qiyoslanganda bilinadi” tamoyiliga asoslanadi.

Maqolada o‘zbek jurnalistikasida ko‘tarilayotgan muammolarga yondashuv demokratik jamiyatlar ommaviy axborot vositalari tamoyillariga qiyosan o‘rganildi.

Xususan, tahlil usulining mohiyati tadqiqot obyektni fikran yoki xayolan tarkibiy qismlarga ajratib uning xossalari va xususiyatlarini alohida ajratib o‘rganishdan iboratdir. Masalan, gazetalar mazmunini yaxshilashda demokratik jamiyatlar matbuot nazariyalarining o‘rni, ularning hayotda qo‘llanilishi masalalari alohida o‘rganiladi va natijalari asosida umumiy xulosalarga (yechimlarga) kelinadi.

Ayni tadqiqotimiz davomida tahlil metodi quyidagi bir necha bosqichlarni o‘z ichiga oldi:

1. O‘rganish uchun matbuot nashrlarini tanlash.
2. Matbuot nashrlaridan tahlil uchun maqolalar tanlash.
3. Maqolalarda ko‘tarilgan muammolar ko‘lamini tasniflash.
4. Maqolalarda muammoning ochib berilganlik darajasini aniqlash.
5. Ko‘tarilgan muammolarning uch hokimiyat tomonidan e‘tiborga olinishi darajasini aniqlash.

NATIJALAR VA MUNOZARA

O‘zbekiston bugungi kunda nafaqat iqtisodiy, balki axborot erkinligi bo‘yicha rivojlangan davlatlardan kam bo‘lmaslikka bel bog‘langan. Shu o‘rinda navbatdagi savollar kelib chiqadi: *sovet kommunistik matbuot nazariyasidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri* (ya‘ni, avtoritar va libertarian nazariyadan sakrab) *ijtimoiy mas‘uliyat nazariyasiga* o‘tish mumkinmi? Boshqacha aytganda, davlat va jamiyatning bugungi holatida, ya‘ni qishloq xo‘jaligi (asosan, paxta yetishtirish) ortidan kun ko‘rishga majburlangan, sanoatlashishga endigina harakat boshlagan mustaqil O‘zbekiston postindustrial jamiyatga qachon to‘lasicha o‘tadi? Masalaning o‘zak nuqtasi shu yerda. Aytmoqchimizki, har qanday milliy matbuotdagi yangilanish, taraqqiy etish mamlakatning iqtisodiy salohiyatiga chambarchas bog‘liq. Afsuski, milliy matbuotimiz maydonidagi deysinishlar ildiz-sabablarini bevosita sohamiz va soha vakillarimiz faoliyatidan izlashdan nari o‘tilmadi. Vatanimiz mustaqilligining o‘ttiz ikki yillik tajribalari, hatto ijtimoiy-siyosiy erkinliklarining o‘zi matbuot sohasini yangi demokratik bosqichlarga olib chiqish uchun kifoya emasligini ko‘rsatdi.

Shunday bo‘lsa-da, o‘zbek publisistlari imkonlari doirasida harakat qilishayotgani o‘tgan yilgi gazetalar taxlamlarini o‘rganganimiz fursatida anglashildi.

2023-yil konstitutsiya, saylovga e‘tibor qaratilgan davr bo‘ldi. Bu sana va tadbirlarni barcha bosma nashrlar keng yoritdi. Biz unga batafsil to‘xtalmasdan eski an’anani qo‘llagan holda tahlilimizni siyosiy mazmundagi publisistikadan boshlaymiz.

Dastlab “Ishonch” gazetasida chop etilgan Qudratilla Rafiqovning “Shaxsning tarixdagi roli yoxud Shavkat Mirziyoyev fenomeni va uning O‘zbekiston hamda Markaziy Osiyoda kechayotgan jarayonlarga ta’siri haqida” [Rafiqov, 2023] publisistik maqolasi haqida. Muallif siyosatshunos bo‘lsa ham uning o‘zi maqolani ilmiy emas, publisistika deb atadi: “Ehtimol, maqola sarlavhasidanoq qanday fikr-mulohazalarni aytmoqchi bo‘lganim ayondir. Lekin Yangi O‘zbekiston tarixi bilan bog‘liq ushbu

mavzu bo'yicha hali mamlakatimizda biron-bir ilmiy izlanish olib borilmagan. Demak, masalaga yondashuvimda ham ko'proq publisistik ruh ustun bo'lsa, ma'zur tutgaysiz", deydi muallif.

Q.Rafiqov maqolani "Tarixiy-falsafiy nuqtayi nazardan shaxsning roli", "Shaxslarning Markaziy Osiyo tarixidagi o'rni haqida", "Hozirgi bosqichning Markaziy Osiyodagi ahamiyati yoki Shavkat Mirziyoyev fenomenining ta'siri haqida", "O'zbekistondagi bugungi voqelik va uning rivojida Prezident ta'siri" kabi kichik sarlavhalarda o'z qarashlari, qiyoslarini havola etadi. Uning mustaqillik davrini bosqichlarga bo'ladi: "O'z kuzatishlarim va hisob-kitoblaringa asoslanib, O'zbekiston mustaqil taraqqiyotining bu qisqa davrini uch bosqichga bo'lishni istardim: 1991–2000-yillar; 2000–2016-yillar; 2016–2030-yillar".

Muallif mutaxassislar fikriga tayanib ikkinchi bosqichni siyosiy va iqtisodiy turg'unlik davri sifatida tavsiflaydi. Savollarni qalashtirib tashlaydi: "Nima uchun shunday bo'ldi? Axir avvalgi bosqichda belgilab olingan taraqqiyot yo'li yaxshiroq natijalarga umid qilishga asos berar edi-ku?" va o'zi javob beradi: "Nazarimda, bu juda og'ir va o'ta og'riqli savol, unga bitta maqola doirasida javob berish mushkul". Haqiqatan ham shunday...

Uchinchi bosqich haqida to'xtalar ekan, muallif "2016-yilda O'zbekistonning yangi rahbari va uning jamoasi rivojlanishning zarur ustuvor yo'nalishlarini to'g'ri belgilab, samarali start olishga muvaffaq bo'ldi. Biroq hozirda O'zbekistonning o'z maqsadlaridan adashib ketmasligi nihoyatda muhim masaladir.

Ishoning, bunday xavf doimo mavjud bo'lgan va bo'ladi. Ayniqsa, bu masala dunyoda yangi qutblanish vujudga kelayotgan, bozorlar, resurslar uchun kurash kuchaygan, kuchli davlatlarning zaif mamlakatlar ustidan hukmronlik qilish istagi paydo bo'lgan, Rossiya va Ukraina o'rtasidagi harbiy harakatlarga o'xshash o'ta shafqatsiz, ya'ni harbiy qarama-qarshilik yoqasidagi manfaatlar himoyasi namoyon bo'layotgan bir pallada juda dolzarbdir".

Bu kabi siyosiy sharhlarni nafaqat ziyoli va rahbarlar, balki butun millat o'qib, tahlil qilib, kerakli xulosa chiqarib borishi o'ta muhimdir.

"Xalq so'zi" gazetasida akademik Bakriddin Zaripov "Ma'naviyat chirog'i insonning ongu tafakkurini yoritadi, qalbi vijdonini uyg'otadi" [Zaripov, 2023] maqolasi Prezident Shavkat Mirziyoyevning Uchinchi Renessans haqida bildirgan fikrlari, amaliy ishlari va ularning ahamiyati haqida bobolar merosi, xalqaro tajribalar (masalan, Singapur) misolida asoslab berganligi bilan ahamiyatlidir.

2023-yil OAVda jadidchilik harakati keng yoritildi. Faqat ulardan birinchi manba bilan ishlash zarurligini, hali ochilmagan qo'riq maydoni keng ekanligini eslatmoqchimiz xolos. "Xalq so'zi" gazetasida jadidshunos Naim Karimov "Istiqlool kurashchilari" [Karimov, 2023] maqolasi jadidchilik harakatini o'rganish borasida amalga oshirilgan ishlar va mazkur harakatning vujudga kelishi, rivojlanishi, jadidlar taqdiri haqida yangi qarashlarni bayon qilgan.

"Yangi O'zbekiston" gazetasida Ulug'bek Dolimovning "Buyuk ijtimoiy ish yoxud yangi davr o'zbek pedagogikasining nazariy va amaliy asoslarini aks ettirgan asar" [Dolimov, 2023] sarlavhali maqolasida Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston

yoxud axloq” asarida tahlil etiladi va olim o‘z xulosasida shunday deydi: “zamonaviy pedagogikaning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqdi hamda asar bo‘lg‘usi yosh muallimlar uchun dasturulamal vazifasini bajardi. Aytish mumkinki, asar hozir ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas, aslo yo‘qotmaydi”.

Ta‘lim sohasini xorijiy tajribalar asosida o‘qitishga naqadar ruju qo‘ymaylik, hech yo‘qsa tarbiyaviy yo‘nalishda Avloniy kabi jadidlar o‘gitlaridan foydalanishni unutmasligimiz kerak.

“Jamiyat” gazetasida Ulug‘bek Hamdamning “O‘zimiz o‘tirgan shoxni kesmaylik” [Hamdam, 2023] maqolasi ham o‘zgacha ruhda bo‘lib, Abdulla Qodiriy ijodi haqida salbiy fikr bildirgan tadqiqotchiga javob tariqasida yozilgan.

Umuman olganda, barcha nashrlar jadidchilik mavzusiga murojaat qilishgan va asosan, olimlarning tadqiqiy maqolalari berib borilgan.

Matbuot – jamiyatning o‘ziga xos ko‘zgusi hisoblanadi. “Yangi O‘zbekiston” gazetasida O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist Jabbor Razzoqovning “Jurnalistika – ochilmagan qo‘riq” deb nomlangan publisistik maqolasi diqqatga loyiq. Unda matbuot – jamiyatning o‘ziga xos ko‘zgusi ekanligi, unga ko‘z tashlab mamlakatning asl qiyofasini, xalqning turmushini, yashash tarzini, qolaversa, bosma nashrlarni shakllantirayotgan jurnalistlarning mahoratini bilib olish qiyin emasligi, gazeta va jurnallarsiz, radio-televideniyesiz hozirgi zamonda hech bir xalq ko‘zlagan maqsadiga erisha olmasligi asoslangan.

“Ishonch” gazetasi bosh muharriri Husan Ermatovning “Bosma nashrlar transformatsiyasi: nimalarga bog‘liq bo‘lib qolmoqda?” sarlavhali maqolasi haqida uning hajmidanda ko‘p gapirish mumkin. Muallif jamiyatni internetlashtirish bahonasida yangi konsepsiyani “go‘yoki”, ya‘ni oxirigacha o‘ylamasdan amalga oshirilishi natijasida keltirilgan zararini alam bilan yozadi: “... bu o‘ta shoshqaloq fikr edi aslida. Chunki quyidagi oddiygina savolga javob hali yo‘q edi: xo‘sh, o‘quvchi olaylik, ona tili, adabiyotdan, geografiya yoki tarix fanidan bilimni internetning qaysi manbasidan olishi mumkin? O‘sha manba hali risoladagiday bormi?”

Axir yaratilmaganku hali! E‘tibor bering, o‘zbek o‘quvchisining bilimini oshirish uchun fundamental bilim ko‘nikmalari hali internetning o‘zbek segmentida mutlaqo yetarli emas.

Xo‘sh, o‘zi, umuman, pedagogikaning haftiyagini ham bilmagan bu ayon butun bir mamlakat va millat kelajagi uchun daxl qiladigan muhim soha bo‘yicha shunday qaror qabul qilishi qanchalik to‘g‘ri edi? Bu huquqni unga kim bergan?

Ming afsuski, hech kim! Demak, sohaning zamonaviy rahbari bilib-bilmay aslida o‘z sohasining rivoji yo‘lida maktab o‘quvchilarining ko‘p yillik umrini zoye ketkazishga qaror bergan bo‘lib chiqmoqda”.

Naqadar dahshatli xulosa bo‘lmasin bu hayot haqiqatidir. Zero, tarbiya hayot mamot masalasi hisoblanadi.

O‘zbekiston qahramoni Ibrohim G‘afurovning “Ertamizni matbuotsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi” maqolasi yuqorida H.Ermatov tilga olgan rahbar qilmishlarini yopib ketadi degan umidni uyg‘otadi: “Hamma biladi, bugun “majburiy obuna” mumkin emasligini. Shu bois, obuna qilish – o‘limdan qiyin. Ammo davlat rahnamolik qilsa,

homiylilik qilsa, gazeta va jurnallar, hech bo'lmasa mamlakatdagi asosiy nashrlar, ya'ni hammaga kerak, davlat siyosatini, ma'naviyatini, ma'rifatini ko'taradigan nashrlarning qaddini tiklash mumkin bo'ladi... fikri o'qijimcha, Uchinchi Renessans g'oyasini matbuotsiz elu-yurtga to'laqonli singdirib bo'lmaydi. Qolaversa, shuncha og'ir yumushlarni, ulug' bunyodkorliklarni bajarayotgan O'zbekistonimiz uchun yuqorida men sanagan va sanamagan, aytaylik, jami bo'lib 20ta nufuzli nashrni xonadonlarga, o'qishga chanqoq aholiga yetkazib berish ham cho't ekanmi? ... Ishonchim komil, o'zbek matbuoti yaqin vaqtlar ichida qaddini g'oz ko'taradi, o'zini hurmat qilgan katta-kichik baribir matbuotga albatta qaytadi”.

“Milliy tiklanish” gazetasi bosh muharriri, jurnalist Mirodil Abdurahmonov “Matbuot, so'z erkinligi va ijtimoiy fikrni shakllantirish nihoyatda nozik masala. Shunga qaramay, Prezidentimizning siyosiy irodasi bilan ushbu sohaga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratila boshlandi. Turlicha qarash va munosabatlarga, hatto qarshiliklarga qaramay, so'z erkinligi himoya qilinyapti va bu tub islohotlar poydevori ekani tan olinyapti.

Konstitutsiyaviy islohotlarga chuqurroq nazar tashlansa, bu jarayon barcha soha va tizimlarni qamrab olayotganini ko'ramiz. Masalan, 82-moddada ommaviy axborot vositalari faoliyatiga to'sqinlik qilish yoki aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'lishi belgilab qo'yildi”, deb yozdi “Yangi O'zbekiston” gazetasining 2023-yil 28-aprel kungi sonida chop etilgan “Yangi tahrirdagi Konstitutsiya bizga nima beradi?” maqolasida.

Maqsud Jonixonovning “E'tiborsiz qolayotgan shamshir” [Jonixonov, 2023] maqolasi ham matbuotga e'tiborsizlik oqibati – savodsizlikning avj olgani haqidadir.

O'tgan yil publisistlarning sayohat yili bo'lganligini gazetalar sahifalarida aks etgan maqolalar ko'rsatib turibdi. Jumladan, Norqobil Jalilning “Hind sori yuzlandik...” [Jalil, 2023] sarlavhali yo'l ocherki janrida yozilgan mazkur publisistik asar Hind diyoridagi o'ziga xosliklar, jumadan, Boburiylarga munosabat bilan birga o'zimizda urf bo'layotgan jarimalarga nisbatan ham fikr bildirilgan:

“Odamlardan olingan soliq, to'lov yoki jarimalar bilan xazina to'lib qolmaydi, balki ularga yashash va ishlash uchun qancha erkinlik berilsa, ana shunda xalq ham, davlat ham boyiydi!..”(Bu hind ziyolilaridan birining fikri).

Jurnalist Islom Hamroning “Qardoshlikning mangulik rishtalari” deb nomlangan yo'l ocherki [Hamro, 2023] ham diqqatga sazavor. Jurnalist vodiy orqali qardosh Qirg'izistonga safar qiladi. Ko'radi, suhbatlashadi.

“Uzoq davom etgan suhbatdan keyin Muhammadali aka bilan yolg'iz qolganda u kishiga ertalabdan beri miyamda aylanib yurgan savolni berdim. – Muhammadali aka, milliy masala qay ahvolda? Oqsoqol menga hayron bo'lgandek qaradi. O'zimcha yana savolga aniqlik kiritgan bo'ldim. – Qirg'izlar bilan o'zbeklarning munosabatlari qanday, demoqchi edim? Negadir mezbanning qovog'i uyuldi. Shundan sezdimki, Muhammadali akaga savolim yoqmadi. Oraga sovuq jimlik cho'kdi. Oqsoqol nihoyat mehmonligimizni hisobga oldi, shekilli, oradan bir muddat o'tib, savolimizga javob berdi. – Negadir O'zbekistondan kelgan tanish-bilishlar shu savolni juda ko'p berishadi. Shu savolni eshitsamgina o'zimning o'zbekligim-u qo'shnimning qirg'izligi yodimga

tushadi. Aslida biz, novqatlik, o'shlik, umuman olganda, qirg'izistonlik o'zbek va qirg'iz xalqi et bilan tirnoq bo'lib ketganmiz. Tilimiz bir, dinimiz bir, imone'ti qodimiz bir. Birimiz ko'z bo'lsak, birimiz qoshmiz. Mana shu, hozir biz o'tirgan hovlida otam tug'ilgan, undan keyin men dunyoga kelganman. Keyin farzandlarim tug'ilishdi. Elda "yaxshi-yomon kuningda yoningda turgan qo'shni qarindoshdan yaqin bo'lib ketadi", degan gap bor. Juda to'g'ri. Juda topib aytilgan gap. Biz ham qirg'iz qo'shnilar bilan qon-qarindosh, quda-anda bo'lib ketganmiz. Bu yurtida hech kim bu qirg'iz, bu o'zbek, deb qaramaydi. Shuning uchun ham siz bergan savolni yomon ko'raman.

Yaqin o'tmishga bir qarang. Chegaralar berk edi. O'zbekistondagi qon-qarindoshlarimizning na to'yi, na ma'rakasiga bora olmasdik. Shunda bizning to'y-ma'rakamizda yonimizda shu qirg'iz birodarlarimiz turishdi-ku. Xudoga shukur, bugun yo'llarimiz ochildi. Mana, bugun siz Qirg'iz Respublikasiga keldingiz, ertaga men O'zbekistonga boraman. Birov nega kelding, nega ketding, demaydi. Har kungi nomozimda duo qilaman, o'zbek va qirg'iz xalqlarining qadimiy qardoshligini tiklab, yanada yaqinlashishiga sababchi bo'lgan ikki yurtning rahbarlari omon bo'lishsin, dunyo turguncha turishsin!"

Ko'rinib turibdiki, turkiy davlatlar birlashishi uchun bu kabi ajratishlarga o'rin qolmasligi, buning yo'llarini qidirish zarurligi ta'kidlanmoqda.

Shuningdek, Husan Ermatovning "Shushada yangi tashkilotga asos solindi", Norqobil Jalilning "Endi mehmon emasmiz..." ("XXI asr"), Abdirasul Jumaqulning "Tojikiston taassurotlari" ("Hurriyat") va Muhammadjon Obidovning "Kusto orolida 10 kun" ("Farg'ona haqiqati") sarlavhali sayohatnomalarini ta'kidlash joiz.

Yil tahlili shuni ko'rsatdiki, nashrlar jamiyatdagi barcha muammolarni imkon qadar aytmoqda.

Nurxon Elmirzayevaning "Otalik majburiyatini unutganlar... qonun sizlarni unutmaydi" [Elmirzayeva, 2023] maqolasida ba'zi "ota"larning qilmishlari nima bilan yakun topishi mumkinligini uchta misol yordamida ko'rsatib berilgan.

Ro'zimboy Hasanning "Ro'yxatlarda nomi yo'qlar... yoki faqat buguni bilan yashashga mahkumlar hasratini kim tinglaydi?" [Hasan, 2023] maqolasi ko'plab oddiy dehqonlardan birining umrguzaronligi muammolari haqida hikoya qiladi. "Hayotining aksar davri dalada kechgan ishchi, traktorchining ertaga qarilik nafaqasiga chiqishi bor. Ro'yxatlarda yo'q, og'zaki kelishuv bilan ishlagan bechora eng pastdan past pensiya egasi bo'ladi. Sababi, pensiya jamg'armasida biror marta nomi qayd qilinmagan. Viloyatda faoliyat yuritayotgan minglab fermer xo'jaliklarining aksariyatida shu hol. Eng katta fermer xo'jaliklarida ham ro'yxatlarga nomi tirkalganlar sanoqli. Qolganlari esa og'zaki yollanganlar".

Demak, jamiyatda bozor talablari qonunlarda o'rnatilgan qoidalar asosida bajarilmayaptimi, mutasaddilar bu masalaga jiddiy e'tibor qaratishlari zarurligi ta'kidlanmoqda.

Jurnalist Ozod Rajabovning "Va'da berish oson, lekin uddalash qiyin" [Rajabov, 2023] sarlavhasi ostida berilgan Oliy Majlis deputati Doniyor G'aniyev bilan suhbatida o'sha paytda sodir bo'lgan anomal sovuq va uning natijalari bilan bog'liq muammolarni qonunchilikdagi aksi haqida tanqidiy fikrlarini bayon qiladi: "Tahlillarga

qaraydigan bo'lsak, keyingi paytlarda energetika sohasi bo'yicha muammolar yuzaga kelayotganining bosh sababi aholi va korxonalar hamda issiqlik tashkilotlariga yetarli miqdor va bosimlarda yetarli gaz yetkazib berilmayotgani bilan bog'liq. Ya'ni sohaga bozor munosabatlari joriy qilinmagani bois gaz qazib chiqarish keskin kamaygan, chunki gaz qazib chiqarishni oshirishga iqtisodiy rag'bat yo'q. Qolaversa, narxlar talab va taklif asosidap belgilanmasligi oqibatida amaldagi gaz iste'moli oqibatida amaldagi gaz iste'moli xarajatlarini qoplash uchun bir yilda byudjetdan 16 trln. so'mdan oshiq mablag' yo'naltirilmoqda. Lekin davlat byudjetidan ajratilayotgan bu subsidiya mablag'laridan gaz va elekt ta'minlangan, ya'ni asosan poytaxt va markaziy shaharlarda yashovchi daromadi nisbatan yuqori aholi foydalanmoqda.

O'ylaymanki, energetika sohasiga ham to'liq bozor munosabatlarini joriy etish, narxlarning erkin belgilanishi uchun kerakli huquqiy asos yaratish zarur".

Qishning qahraton kelishida O'zbekiston energetika sohasi sinovdan o'ta olmadi. Deputatning qo'ygan masalalari tizim mutasaddilariga ogohlik qo'ng'irog'i vazifasini o'tadi.

Jurnalist Farrux Jabborovning "Professor Mustafa Demirji: O'zbekiston Osiyoning iqtisodiy markaziga aylandi" (2023-yil 26-oktabr), O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist Norqobil Jalilning "Tarjima qiroli" (2023-yil 7-sentabr) sarlavhali O'zbekiston qahramoni, adib va mohir tarjimon Ibrohim G'afurov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Gulmira Musajonovanning publisist va adib Qulman Ochilov "Azaliy haqiqatlar" (2023-yil 2-noyabr) bilan qilgan suhbatlari ham e'tiborga molik.

Ro'zimboy Hasan. "Anna German – Urganchning "o'gay" qizimi?" (2023-yil 3-avgust). Maqolada O'zbekistonda tug'ilib o'sgan taniqli qo'shiqchi xotirasini abadiyashtirish bo'yicha hukumat qarorining bajarilmagani tanqid qilingan. Ko'p o'tmay maqolaga munosabat bildirilib ("Anna German Xorazmga "qaytdi"! (2023-yil 24-avgust), bu borada amalga oshiriladigan ishlar boshlangani haqida Urganch shahar hokimining javobi va mazkur masalaga tegishli boshqa ishlar haqida ma'lumot berilgan. Gazetada e'lon qilingan maqola samarali natija bergan.

Shuningdek jurnalist Ro'zimboy Hasanning "Ustamasi uch baravar yoxud nega ulovidan tushovi qimmat" (2023-yil 20-aprel), "Rahimov nega hamon norozi?" (2023-yil 27-iyul), "Guruch nega qimmatlashyapti?" (2023-yil 26-oktabr), Ulug'bek Oripovning "Oqsuv"dagi og'riqlar" (2023-yil 5-oktabr), Shahruza Sattorovanning "Hamimiz kasalmiz!" (2023-yil 20-aprel), Nurxon Elmirzayevaning "Terminal yo'q, klik bor! Yoxud "Ippodrom" va "Titanik" nazoratchi organlar nazorat qilmaydigan savdo markazlarimi?" (2023-yil 9-noyabr) sarlavhali maqolalarida davrning dolzarb muammolari jamoatchilik e'tiboriga havola qilingan.

"Ishonch" gazetasida Shahnoza Soatovanning "Katta monopoliyalarni jilovlash kerak!", Nurilla No'monovning "Energetik muammolar Andijonda qanday hal etilmoqda?", Muhabbat To'raboyevanning "Talab qilishdan oldin sharoit yaratish kerak yoxud "Dok-1 Maks" fojiasidan keyingi o'ylar", Anvarjon Halimovning "Yangi qurilgan inshootlardan xavotirlar o'rinni?" maqolalari jamiyat duch kelgan muammolarga bag'ishlanganligi bilan ahamiyatlidir.

Shuningdek, “Ishonch”da Erkin Ernazarovning “Repetitor nega kerak?”, Husan Ermatovning “Gap asldi muallimlarda”, Zebo Namozovaning “Haftalik malaka oshirish qanchaga tushmoqda?”, Gulruxbegim Odashboyevaning “Bir o‘quvchiga atigi bir daqiqa” maqolalari ta’limimiz muammolariga bag‘ishlangan.

Ma’naviyatimizga zarar keltirayotgan noxush hodisalar haqida Ahmadjon Meliboyevning “Isrof”, G‘ulomjon Mirahmedovning “Jinoyat ko‘chasidagi ayollar” maqolalari dolzarbligi bilan ajralib turadi.

“Adolat” gazetasida Muhiddin Omadning “Mahzunalar, ma’sumalar, mahkumalar...” [Omad, 2023] sarlavhali reportaji Toshkent viloyati, Zangiota tumaniga qarashli “Bog‘zor” qo‘rg‘onida joylashgan 42-sonli manzil koloniyasidan yozilgan. Qotillik, tovlamachilik, o‘g‘rilik, birovlarining mulkini talon-taroj qilish, narkotik moddalarning noqonuniy oldi-sottisi bilan shug‘ullanish, og‘u chekish va boshqa jinoyatlari bilan qamalgan ayollar... Uzoq yillardan buyon shu yerda xizmat qiladigan kapitanning ming bora o‘ylab chiqargan xulosasidan parcha o‘qiymiz:

“Bosh sababchi – ota-onalar! Ular farzandlariga yaxshi tarbiya bermay qo‘yishdi. Ikkinchisi – yetimlik! Otasi yoki onasidan ajrab qolgan bola tarbiyasi bilan qiziqadigan kam. Oqibatda, hattoki, qizlar ham og‘ir jinoyat qilishgacha borib yetmoqda. Buning ustiga “milliy” degan niqob ostidagi maishiy seriallar yoshlarni yo‘ldan ozdiryapti. Hali vaqti kelsa, vaziyat bundan-da chigal bo‘lishi mumkin. Mobil telefonlar haqida gapirmasa ham bo‘ladi. Ba’zi ayollarning o‘zlarini eridan ustun qo‘yishi, boylik uchun o‘zini o‘tga-cho‘qqa urishi ham jinoyatga sabab bo‘lmoqda”.

Ushbu publisistik asr muallifi Muhiddin Omad degan jurnalistning 2023-yilda Namangandan o‘ntadan ko‘p publisistik maqolalari chop etilganligini alohida ta’kidlashni istardik. Ularning hammasi dolzarb, tahlil ham bor, o‘z o‘rnida tanqid ham yetarli.

Gazetadagi “Hamma bir xil tushunishi va qo‘llashi zarur yoxud OAVga oid qonunlarni kim sharhlaydi?” sarlavhali maqolada (H.Saidov) muhim masala ko‘tarilgan. Unda OAVga tegishli qonunlar sharhlanishi zarurligi uqdiriladi:

“Biz esa hamma taraf bir xil tushunadigan sharhlar zarurati haqida fikr yuritmoqdamiz.

Mazkur muhim ishni, ya’ni sharhni yangilangan O‘zbekiston Konstitutsiyasining tegishli moddasidan boshlash ayni muddao bo‘lardi. Uning “Ommaviy axborot vositalari” deb nomlangan XV bobida ikki modda mavjud.

“81-modda.

Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ish olib boradilar.

Davlat ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligini, ularning axborotni izlash, olish, undan foydalanish va uni tarqatishga bo‘lgan huquqlari amalga oshirilishini kafolatlaydi.

Ommaviy axborot vositalari o‘zi taqdim etadigan axborotning ishonchliligi uchun javobgardir”.

Bobning ikkinchi bandi sharhni talab etadi. Tazyiqning huquqiy tasnifi qanaqa? Qaysi harakatlar tazyiqqa kiradi? Masalan, telefon orqali qo‘rqitishlar tazyiqqa kiradimi? Aniqlab oldik ham deylik. Navbatdagi savollar: OAV erkinligi yoki jurnalist

faoliyatiga tazyiq bo'lsa, u holda qaysi tashkilotlarga murojaat qilinishi kerak? Shikoyatni qabul qilgan tashkilot qanday amallarni bajarishi shart yoki bajarmasa OAV tahririyati rahbari yoki jurnalist yana qanday yo'l tutishi zarur? Murojaatni qabul qilishdan bo'yin tovlagan mutasaddilarga qaysi qonunga asosan qanday choralar ko'riladi?.. Bu kabi savollarga sharhlarda javob berish talab etiladi.

Mazkur savollarga sharhlarda javob berilsa, jurnalist ham, mutasaddi ham, sudyalari ham, oddiy insonlar ham har bir harakatini qonun doirasida amalga oshiradi, axborot olish osonlashadi, jamiyatdagi mavjud muammoning bartaraf etilishiga erishiladi.

Demak, qonunlarning bandlari ommabop tarzda sharhlanishidan to'rt hokimiyatgina emas, balki jamiyat yutadi. Nafaqat OAVda, balki ijtimoiy tarmoqlarda noroziliklar, haqoratlar kamayadi, tayinli taklif va aqlli fikrlar ko'payadi. Sharhdan jamiyat manfaat ko'rsa davlatning obro'si ham oshishi, shubhasiz".

Muallif qonunlarning sharhlanmaganligi ba'zi moddalarning turlicha talqin qilinishiga va ular, asosan, jurnalistlarning zarariga ishlayotgani ishonarli dalillar va savollar bilan ochib bergan.

Shuningdek, gazetada chop etilgan falsafa fanlari doktori, professor Viktor Alimasovning "Daryolar sohillari sotilganmi?", O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist Kamol Matyoqubovning "Mamlakat taraqqiyotining ulug'vor asoslari", O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi O'tkir Jo'rayevning "Sifatli ta'lim uchun hammamiz mas'ulmiz" kabi maqolalari dolzarbligi bilan ajralib turadi.

"Ma'rifat" gazetasidagi akademik Abdulla A'zamning "Hassamizni yana bir marta yo'qotmaylik" [A'zam, 2023] maqolasida kasb ta'limini rivojlantirish bo'yicha juda muhim takliflarni kiritilgan.

"Eng muhimi, ta'lim sohasidagi har qanday islohot tajribadan boshlanishi lozim. Islohotchilarga tekkan dard: tajriba eng yaxshi ta'lim muassasalarida, eng yaxshi o'qituvchilarni tanlab o'tkaziladi. Bu mutlaqo noto'g'ri, rahbariyatni ham, o'zini ham, xalqni ham aldash, hatto ko'zbo'yamachilik. Tajriba uchun bitta yaxshi maktab tanlansa, 10ta o'rtacha, 20ta past saviyadagi maktab va o'qituvchi tanlanishi kerak. So'ng halol xulosa chiqarish shart", deydi jumladan muallif.

Normamat Eshonqulovning "Ta'til qishda bo'lsa yoxud avlodlar haqiga xiyonat qilmaylik" deya sarlavhalangan jami oltita maqolasini alohida tilga olish joiz.

"Uzoq muddatli qishki ta'tilning (masalan, 50 kun) joriy etilishi, mamlakat iqtisodiyoti uchun anchagina foydali bo'lishini, kattagina miqdorda tabiiy resurslarning tejalishiga xizmat qilishini tushunish uchun judayam aqlli bo'lish shart emas. Tasavvur qilaylik, mamlakatimizda 10 mingta maktab bor. Yana xayolotni jinday ishga solib, har bir maktabda o'rtacha yigirmatadan sinfxona bo'lsin (Aslida aniq statistik ma'lumotlarni keltirsak bundan anchagina ko'proq). 200 mingta sinfxona mavjud deb hisoblaylikda, sinfxonalar sonini 50 kunlik qishki ta'til kunlariga ko'paytiraylik. Anchagina salmoqli 10 million soni hosil bo'ladi. Endi yana tasavvurimizga erk beraylik-da, barcha xonalar ko'mir bilan isitiladi va bir kunda o'rtacha 10 kilogramdan (Aslida isitish tizimlaridagi suv muzlab qolmasligi uchun yoqilg'i ancha ko'p miqdorda sarflanadi) sarflanadi deb hisoblaydigan bo'lsak, qishki

ta'tilni isloh qilish hisobiga bir yilda 100 ming tonna ko'mir iqtisod qilinar ekan. Bu hali ham eng minimal hisob-kitob”...

“Natijada:

1. Katta miqdordagi resurslar iqtisod qilinadi.
2. slohot mutlaqo xarajatsiz, Vazirlar Mahkamasining qarori yoxud Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining buyrug'i bilan amalga oshadi.

3. Millionlab o'quvchilar va yuz minglab o'qituvchilarning qish sovug'ida qiynalishiga barham berilib, ularning shamollab qolib turli-tuman kasallik oltirishlarining oldi olinadi.

4. Ta'lim sifatiga xizmat qiladi. Chunki ahyon-ahyonda yuz berib turadigan anomal sovuq sharoitida maktablarga bir necha kun, hafta, hatto oylab davom etadigan qo'shimcha ta'tillar beriladi. Masalan, 2008-yilning boshida bir oylik qo'shimcha ta'til berilgan edi. Bunday qo'shimcha ta'tillar ta'lim sifatiga keltiradigan “foйда”ning oldini olish esa ta'lim sifatiga xizmat qilishi tabiiy.

5. Shu o'rinda yana bir narsani eslatib o'tishni joiz deb bildim. Ma'lumki, mamlakatimiz ko'p millatli, ko'plab diniy konfessiyalar faoliyat yuritadigan mamlakat. Agar qishki ta'tilga o'tilsa xristian diniga e'tiqod qiluvchi hamyurtlarimiz uchun ham ko'plab qulayliklar yaratilgan bo'lardi...

6. Eng muhimi, resurslar kelajak avlodlar uchun tejaladi.

Ya'ni avlodlar haqiga xiyonat qilinmaydi”.

Maqola mutasaddi davlat tashkilotlari rahbarlarining islohotlar jarayonida e'tibor berishlari zarur bo'lgan muammolardan ogoh etgani bilan ahamiyatlidir.

Mahmudjon Sharapovning “Sifatli ta'lim: zamonaviy o'qitish usullaridan ibratli misollar” (Nabirasi Kaliforniyada o'qiydigan boboning kuzatuvlari) maqolasi ham o'z yo'lini topishga qiynalayotgan ta'limimiz uchun muhim ahamiyatga ega.

Kenjaxon Usmonovanning “Qachongacha aldaymiz bir-birimizni?! Vazir Hilola Umarovaga murojaat” maqolasida fanlarning qisqartirilishi haqidagi xabarni eshitgan o'qituvchilarning g'azabi kelgani, o'quvchi barcha fanlarga qiziqmasligini boshqacha yo'l vositasida isloh qilish kerakligi xususida jo'yali fikrlar bildiriladi.

Bu maqolani rahbarlar o'qishi va zarur xulosalar chiqarilishi darkor. Fikrni o'qimaslik, aytsa qabul qilmaslik bugungi ijroning eng katta muammosidir.

“Ma'rifat” gazetasi o'zbek tilimiz va yozuvi bo'yicha obyektiv tanqid-u o'rinli takliflarni ba'zi nashrlar kabi mavsumiy emas, balki yil davomida muntazam berib borgan yagona nashr ekanligini ta'kidlashni istardik.

“Hurriyat” gazetasidagi Sobirjon Inomovning “Gazeta o'qimaydigan hokim”, Islom Asilbekovning “Gazeta o'qimaydigan, televizor ko'rmaydigan, radio ham kerak bo'lmagan DOKTORANT”, Hakim Sattoriyning “Go'ri Amir qayerda?”, Rayimberdi Xo'jaqulovning “Murojaatga munosabat mantiqli bo'lsin”, Sharofiddin To'laganovning “Mushtarak maqsadlar makoni” maqolalari diqqatga sazavor.

Shohrux Akbarovning “O'zbekistonda frion ishlab chiqarishning imkoni bormi?” suhbatidan: “Tadbirkor Muhiddin Ortiqovning ishlab chiqarish bilan bog'liq rejasi amalga ohsa yiliga davlat xazinasiga 1 000 000 AQSH dollari tushishi mumkin.

Biz muzlatgichlarning frion degan kimyoviy suyuqlik asosida ishlatilishini

bilamiz. Muzlatgich esa frionsiz bir daqiqa ham ishlamaydi, sovutmaydi. Biroq shuni aytish kerakki, frion kimyoviy moddasi dunyoda sanoqligina davlatlar, asosan Amerika va Xitoyda ishlab chiqarilar ekan. Shu bois O'zbekistonga ham ushbu mahsulot xorijdan olib kelinadi".

"Milliy tiklanish" gazetasida Mahbuba Karimovaning "Tubanlik sari "dadil odimlayotganlar", Ahmadjon Meliboyevning "Noshir ijodkor bo'lsa", "Kitoblarga jo bo'lgan xazina", Bahrom Irzayevning "Qonxo'r "uchlik" yoxud tuproqqa qorishgan taqdirlar", Farhod Qurbonboyevning "Loqaydlik qimmatga tushishi mumkin" kabi maqolalarning har biri davrning dolzarb muammolarini ochib berganligini alohida urg'ulashni istardik.

"Oil va tabiat" gazetasida Shahruza Sattorova "Ko'mir ko'p, issiqlik kerak, ammo umr-chi?" (50-son), Mansurbek Jabborov "Sharmandaga shahar kengmi? Telekanallar mas'ullari "ko'rmayotgan" illatlar", "Bir oyda 300ta o'lim", "Munosabat o'zgarmas ekan, muammoga yechim topolmaymiz", Abdukarim Avazbekov "Yo'qotilayotgan suv uchun mas'uliyat kimning zimmasida?", Turobjon Abdurazzoqning "Ovozning narxi qancha?", Erpo'lat Baxtning "Yemagan somsangizga pul to'lab qo'ying!" sarlavhali maqolalari ham diqqatga sazavor.

Masalan, Shahruza Sattorova "Ko'mir ko'p, issiqlik kerak, ammo umr-chi?" sarlavhali maqolasida to'plagan ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yil oxirigacha 5407ta ijtimoiy obyektni ko'mirda isitishga o'tkazish belgilangan (2229tasi bog'cha, 2432ta maktab va 746ta tibbiyot muassasasi) bo'lib, ularning isitilishi uchun 184,4 ming tonna ko'mir yetkazib berish ko'zda tutilgan. Aholiga esa 2023-2024-yillar kuz-qish mavsumi uchun 1 190,8 ming tonna ko'mir yetkazib berilishi haqida ma'lumot bergan. Bu hajm avvalgi yillarga qaraganda ancha ko'p (2022-2023-yillar kuz-qish mavsumida respublika aholisiga 882 ming tonna ko'mir yetkazib berilgan). Bir yaxshi albatta. Biroq jurnalist tanganing ikkinchi tomondan qarashga chaqiradi: "havo iflosligi bo'yicha eng yuqori o'rinlarga chiqib qolayotgan mamlakatimiz uchun bu qaror qanchalik foyda keltiradi? Qishda sovgotmaslik badalini sog'ligimiz bilan to'laymizmi? Bu orqali bir muammoni yana bir og'ir ijtimoiy muammoga almashtirib qo'ymayapmizmi?" Butun dunyo yuz berajak xavflarning oldini olish, iqlim o'zgarishining salbiy ta'sirini kamaytirish maqsadida ko'mir iste'molini qisqartirish harakatida. Shu jarayonda mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish bo'yicha ham muhim chora-tadbirlar belgilangan. Biroq bu borada hali biror natija bilan maqtana olmasligimiz aniq. Tabiiy gaz yetishmovchiligi, buning ortidan elektr taqchilligi kuzatilar ekan, ko'mir asosiy energiya manbai bo'lib qolaveradi. Ammo ko'mir yoqishning oqibatlarini ham esdan chiqarmasligimiz shartligini aytadi.

Ko'mir dunyoda insoniyat foydalanadigan yoqilg'ilar ichida tabiatni eng ko'p ifloslovchi hisoblanadi. Statistika 1 daraja ko'tarilgan global isitishning 0,3 darajasi ko'mir hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlaydi. Bugungi kunda dunyo bo'yicha elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun ko'mirdan foydalanish atmosferaga yiliga 10,5 mlrd tonna karbonat angidrid chiqarilishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa karbonat angidrid chiqindilarining 30 foizini tashkil qiladi. Muallif ko'mirdan tarqaladigan

zaharlar uni qazib olish, tashishdan to foydalanishgacha bo'lgan jarayonda atrof-muhit, havo, tuproq va suvni ifloslaydi, degan fikrda.

Shahruza Sattorova o'zining "Qarz yuki ostida yashayotganlar qachon qaddini ko'taradi?" sarlavhali maqolasida masalaga o'ziga xos rakursda nazar tashlagani bilan ahamiyatli. Tahlilining xulosasi esa bugungi oddiy odamlardan tortib hukumat mansabdorlarini ham o'ygatgandir aniq:

"Ko'rib turganingizdek, narx-navo qimmatligi, noto'g'ri qarashlar, oylik maoshi kamligi kabi qator omillar jamiyatimizda ko'pchilik oilalarni ratsional yashashga majbur qilmoqda. Ular oylik kechikishidan, ishsiz qolishdan, kasal bo'lishdan qo'rqadi, ortiqcha xarajatdan voz kechadi. Kundalik tashvishlardan ortib, ijtimoiy qobiqni yorib chiqishga ularda imkon yo'q, ular pul topishga majbur.

Pul topib, uy olish kerak, keyin mashina, keyin farzandiga to'y qilishi kerak, zanjir shu tarzda davom etaveradi. Bu biz keltirgan eng optimal misol. Yo'qchilikka sabr qilolmay ajrashib ketayotgan, 10 yillardan buyon ijara uylarda yashayotgan, kreditlarni vaqtida yopa olmay, qarzga botayotgan oilalar ham, afsuski, topiladi.

Bu kabi og'riqlik savollar ko'p. Davlat va nodavlat tashkilotlari g'amxo'rlikida qilinayotgan amaliy ishlar ham kam emas. Ammo... odamlarning real turmushi qachon amalda qarz yukidan qutulib, qaddini rostlay oladi? Shu savol ko'pchilikni o'ylantiryapti..."

Saida Ibodinovaning "Diqqat! Navbatdagi "ogohlik qo'ng'irog'i", "Haq so'zni ayta olish imkoni". Turobjon Abdurazzoq, Erpo'lat Baxtning "Butefos "qabristonlari" fojiasiga chek qo'yilishidan umidvormiz", Saida Ibodinovaning "Yo'qotilayotgan avlod yoki gadjetlarga qaram bolalar: bizni nima kutmoqda?", Mansurbek Jabborovning "Dok 1 maks"ning murg'ak qurbonlari qaytmaydi, ammo biz biror jiddiy xulosa qildikmi?" maqolalari ham kunning muhim muammolarini taftish qilganligi bilan ahamiyatlidir.

"Jamiyat" gazetasida Husniddin Berdiyevning "Resept – ajalga yo'llanma...mi?", Javlon Jovliyevning "Dor"idan omon chiqib bo'lmaydi", Barno Sultonovaning "Ma'naviyat kimga kerak – bozorchiga, yoshlarga...amaldorgachi?", Mansurbek Jabborovning "Bola o'g'irlari yoxud yolg'on axborotni tarqatishdan maqsad nima?", Sirojiddin Raufning "Bir yigitning qirq bir hunari" maqolalari yilning eng yaxshi maqolasiga loyiqdir.

Husniddin Berdiyevning "Resept – ajalga yo'llanma...mi?" maqolasidan jurnalist takliflarini o'qiyamiz: "Xullas, bu sohani tezkorlik bilan jiddiy isloh qilish kerak. Odamlar hayotini biznesga tikayotgan "farmasevtika magnatlari"ni jilovlash vaqti yetdi.

Nima qilish kerak?

1. Har qanday dori preparatini faqat resept asosida sotilishini qat'iy belgilash. Balki xorij tajribasidagi kabi "aspirin" yoki shunga o'xshash ayrim preparatlarni apteka rejimidan chiqarish, oddiygina oziq-ovqat do'konlarida sotishni yo'lga qo'yish mumkindir.

2. Hozir faqat qog'ozda bo'lgan – 3tadan ortiq dori yozish mumkin emasligi haqidagi tartibni qat'iy o'rnatish shart. Undan ko'p sonidagi dori yozish faqat

shifokorlar konsiliumi asosida bo'lsin. Bitta shifokorning o'zi havodan olib o'nta dorini qatorlashtirib yozmasin.

3. TV, radio, umuman jamoatchilik o'rtasida apteka rejimidagi har qanday dori preparati reklama qilinishiga butunay chek qo'yilishi kerak. Aslida bu reklamalar odamlarni o'zini o'zi davolashga undashdan boshqa narsa emas. Bu juda xavfli da'vat!

4. Qo'lida resepti bo'lmagan odamga dori preparati sotishni butunlay taqiqlash, buning uchun qat'iy choralarni qo'llash...

Men shifokor emasman, lekin bugungi real holatdan kelib chiqib fikrimni izohlashga harakat qildim. Ko'chaga chiqib ikki kilometr yurib sanang, yo'lingizda nechta apteka uchraydi? Mana shuning o'zi vaziyat naqadar jiddiy ekanini ko'rsatib turibdi".

"Yoshlar ovozi" gazetasida yana bir topilma muallif – Shahruxa Sattorovanning "21+" maqolasida O'zbekistonda 11 yil avval jamoat joylarida tamaki chekishni cheklovchi qonun qabul qilinib, jarimalar miqdori aniq belgilangan bo'lsa-da, jamoat joylarida chekish, tamaki va alkogol mahsulotlari cheklovchisiz sotilayotgani, alkogol mahsulotlarini qarzga berish, gramlab yoki voyaga yetmaganlarga sotish avj olgani, biror sotuvchi xaridorning yoshi bilan qiziqmasligi kabi kelajakda katta fojialarni keltirib chiqaradi deya bong uradi. Jurnalist turli jarimalarni qalashtirib tashlayotgan idoralar esa chekish borasidagi qoidabuzarliklarni hisobga olmasligini aniqlagan va tegishli xulosasini bayon etgan:

"Ko'rib turganingizdek, yuqoridagi kabi qonunlar 10 yillardan buyon ishlamay keladi. Xo'sh, yangi tahrirdagi qonun ham "hay degani xojasi yo'q" qonunlardan bo'lib qolaveradimi? O'zi mas'ullar ichida kimdir ijro mexanizmi, amaldagi natija haqida ham o'ylaydimi?"

Shu muallif maqolasining yana biri "Arshni kim larzaga solmoqda?" deb nomlangan va sarlavhaning o'ziyoq har qanday ma'rifatli qalbni hushyor torttiradi.

G'arbni tanqid qilamizu biroq ajrimlar borasida ortda qolmayotganimiz sezmaymiz, deydi va statistika ma'lumotlarini biz kattalarning yuzimizga soladi. O'zbekistonda 2022-yilda ajrimlar soni:

"48,7 mingga yetib, so'nggi 5 yilda sezilarli ko'paygan:

2018-yilda 32,3 mingga;

2019-yilda 31,4 mingga;

2020-yilda 28,2 mingga;

2021-yilda 39,3 mingga.

2022-yilda ajrimlarning 50,5 foizi yosh oilalar hissasiga to'g'ri kelgan. Yosh oilalarning ajralib ketishiga 41 foiz holatda xarakterlar mos kelmasligi, 13 foiz holatda befarzandlik, 15 foizida moddiy qiyinchiliklar, 34 foizida uchinchi shaxs aralashuvi, 25 foizida zararli odatlar sabab bo'lgan".

Shuningdek, Shahruxa Sattorovanning "Biz kasalmiz", "Maktablar yetishmovchiligi. 1 milliondan ortiq o'quvchiga o'rin yo'q", "Soyabonsiz, o'rindiqsiz bekatlar", "Gul ekish uchun 2 milliard. Poytaxtda gul ekishdan muhimroq ish yo'qmi", "Alifbodagi 4 ta harf o'zgarmoqda: buning ortidan jamiyatda qarama-qarshi fikr va bahs-munozaralar kelib chiqdi", "Yosh oila: topgani – qarzga", "Qishda yana

qaltiraymizmi?”, “Falajlangan tizimga navbatdagi zarba” kabi maqolalarining har biri jamiyatdagi muammolarning jamoatchilikka olib chiqilgani bilan ahamiyatlidir.

XULOSA

Yana qator nashrlar tahliliga fursat yetmaganini ta’kidlagan holda qisqacha xulosa: 2023-yil publisistikasida iqtisodiy mavzuga kam e’tibor qaratilganligi sezildi. Demak, bu sohada ixtisoslashuv ishlarini olib borish uchun ijodiy maktablar yaratish, ularga iqtisodiy bilimi yuqori bo’lgan mutaxassislarni (rahbarlarni emas) jalb etish, alaloqibat monopolchi va uning natijasida kelib chiqadigan korrupsionerlarni fosh etadigan jurnalistlarni tayyorlash navbatdagi vazifamizdir.

Shunday bo’lsa-da, gazetalar imkoni boricha yashash uchun kurashyapti, jamiyatdagi barcha muammolarni imkoni qadar yoritayapti. Nashrlar tahririyatlari taniqli publisistlardan ham foydalanyapti. Bu ishlarni kuchaytirish uchun faqat va faqat hukumatning va albatta jamoatchilikning e’tibori zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A’zam, A. (2023-yil 15-fevral). Hassamizni yana bir marta yo’qotmaylik. “*Ma’rifat*” gazetasi.
2. Dolimov, U. (2023-yil 30-avgust). Buyuk ijtimoiy ish yoxud yangi davr o’zbek pedagogikasining nazariy va amaliy asoslarini aks ettirgan asar. “*Yangi O’zbekiston*” gazetasi.
3. Elmirzayeva, N. (2023-yil 11-yanvar). Otalik majburiyatini unutganlar... qonun sizlarni unutmaydi. “*XXI asr*” gazetasi.
4. Hamdam, U. (2023-yil 28-dekabr). O’zimiz o’tirgan shoxni kesmaylik. “*Jamiyat*” gazetasi.
5. Hamro, I. (2023-yil 13-oktabr). Qardoshlikning manguilik rishtalari. “*Adolat*” gazetasi.
6. Hasan, R. (2023-yil 26-yanvar). Ro’yxatlarda nomi yo’qlar... yoki faqat buguni bilan yashashga mahkumlar hasratini kim tinglaydi?. “*XXI asr*” gazetasi.
7. Jalil, N. (2023-yil 5-yanvar). Hind sori yuzlandik... “*XXI asr*” gazetasi.
8. Jonixonov, M. (2023-yil 2-avgust). E’tiborsiz qolayotgan shamshir. “*Milliy tiklanish*” gazetasi.
9. Karimov, N. (2023-yil 29-avgust). Istiqlool kurashchilari. “*Xalq so’zi*” gazetasi.
10. Omad, M. (2023-yil 10-fevral). Mahzunalar, ma’sumalar, mahkumalar... “*Adolat*” gazetasi.
11. Rafiqov, Q. (2023-yil 20-iyun). Shaxsning tarixdagi roli yoxud Shavkat Mirziyoyev fenomeni va uning O’zbekiston hamda Markaziy Osiyoda kechayotgan jarayonlarga ta’siri haqida. “*Ishonch*” gazetasi.
12. Rajabov, O. (2023-yil 2-fevral). Va’da berish oson, lekin uddalash qiyin. “*XXI asr*” gazetasi.
13. Siebert, F.S., Peterson, T., & Schramm, W. (1984). *Four Theories of the Press: The Authoritarian, Libertarian, Social Responsibility, and Soviet Communist Concepts of What the Press Should Be and Do*. Illinois: University of Illinois Press. <https://doi.org/10.5406/j.ctv1nhr0v>.
14. Zaripov, B. (2023-yil 22-dekabr). Ma’naviyat chirog’i insonning ongu tafakkurini yoritadi, qalbi vijdonini uyg’otadi. “*Xalq so’zi*” gazetasi.

REFERENCES

1. Azam, A. (2023, February 15). Let’s not lose our momentum again. *Enlightenment*.
2. Dolimov, U. (2023, August 30). Great social work or a work reflecting the theoretical and practical foundations of Uzbek pedagogy of the new era. *New Uzbekistan*.
3. Elmirzayeva, N. (2023, January 11). Those who have forgotten the duty of fatherhood... the law will not forget you. *XXI Century*.
4. Hamdam, U. (2023, December 28). Let’s not cut the branch we are sitting on. *Society*.

5. Hamro, I. (2023, October 13). Eternal bonds of brotherhood. *Justice*.
6. Hasan, R. (2023, January 26). Who will listen to the grief of those whose names are not on the lists... or those condemned to live only today?. *XXI Century*.
7. Jalil, N. (2023, January 5). We turned to the Indian... *XXI Century*.
8. Jonikhonov, M. (2023, August 2). A neglected sword. *National Revival*.
9. Karimov, N. (2023, August 29). Independence fighters. *People's Word*.
10. Omad, M. (2023, February 10). Sad, innocent, convicts... . *Justice*.
11. Rafikov, Q. (2023, June 20). About the role of a person in history or the phenomenon of Shavkat Mirziyoyev and its influence on the processes taking place in Uzbekistan and Central Asia. *Trust*.
12. Rajabov, O. (2023, February 2). It's easy to make a promise, but it's hard to keep it. *XXI Century*.
13. Siebert, F.S., Peterson, T., & Schramm, W. (1984). *Four Theories of the Press: The Authoritarian, Libertarian, Social Responsibility, and Soviet Communist Concepts of What the Press Should Be and Do*. Illinois: University of Illinois Press. <https://doi.org/10.5406/j.ctv1nhr0v>.
14. Zaripov, B. (2023, December 22). The lamp of spirituality illuminates the thinking of the human mind and awakens the conscience of the soul. *People's Word*.